

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

**“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK”: O‘ZBEK TILIDAGI NASHRLARDA MUQADDIMA QISMNING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI XUSUSIDA***Zilola Sattorova**Tayanch doktorant,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: matn, ilmiy nashr, asl nusxa, masdar, tayanch nusxa, yondashuv, transliteratsiya, transkripsiya.

Annotatsiya: “Devoni lug‘ati-t-turk” asari turkologiyada muhim manba bo‘lib, XI asrda butun islom olamiga turkiy tillar, turkiy xalqlarning adabiyoti, san‘ati, shuningdek, madaniyati, urf-odatlari, marosim-an‘alarini o‘rgatishni maqsad qilib yozilgan turkiy xalqlarning mushtarak merosi sifatida e‘tirof etiladi. O‘tgan asrda asar turli tillarga tarjima qilinib nashr etildi. Bugungi kungacha esa o‘zbek tilida uch marta nashr qilindi. Mazkur maqolada asarning o‘zbek tilidagi nashrlarida muqaddima qismining qiyosiy-matniy tahlili amalga oshirilgan, shuningdek aniqlangan tafovutlar asl manba, ya‘ni qo‘lyozma bilan chog‘ishtirilgan va farqlarni yuzaga keltirgan omillar oydinlashtirilgan.

"DEVONU LUG'ATI-T-TURK": ON THE COMPARATIVE AND TEXTUAL STUDY OF THE INTRODUCTION PART IN PUBLICATIONS IN THE UZBEK LANGUAGE*Zilola Sattorova**PhD student,**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: *text*, scientific publication, original copy, reference, base copy, approach, transliteration, transcription.

Abstract: The work "Devoni Lug'ati-t-Turk" is an important source in Turkology, written in the 11th century with the aim of teaching the entire Islamic world about Turkish languages, literature, art, as well as culture, traditions, and rituals of Turkic peoples. It is recognized as

the common heritage of peoples. In the last century, the work was translated into different languages and published. To date, it has been published three times in Uzbek. In this article, a comparative-textual analysis of the preface in the Uzbek language editions of the work was carried out, and the identified differences were compared with the original source, that is, the manuscript, and the factors that caused the differences were clarified.

«ДЕВОНУ ЛУГАТИ-Т-ТУРК»: О СРАВНИТЕЛЬНО-ТЕКСТУАЛЬНОМ ИЗУЧЕНИИ ВВЕДИТЕЛЬНОЙ ЧАСТИ В ИЗДАНИЯХ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Зилола Сагторова

Докторант,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: текст, научная публикация, оригинал, ссылка, базовый экземпляр, подход, транслитерация, транскрипция.

Аннотация: Важным источником по тюркологии является труд «Девони Лугати-т-Тюрк», написанный в XI веке с целью обучения всего исламского мира тюркским языкам, литературе, искусству, а также культуре, традициям и культуре. ритуалы тюркских народов признано общим наследием народов. В прошлом веке произведение было переведено на разные языки и опубликовано. На сегодняшний день он издан трижды на узбекском языке. В данной статье был проведен сопоставительный текстовый анализ предисловия в узбекоязычных изданиях произведения, выявленные различия сопоставлены с первоисточником, то есть рукописью, а также выяснены факторы, вызвавшие различия.

KIRISH

“Devonu lug‘ati-t-turk” turkologiyaning oltin kitobi bo‘lib, kunimizga qadar o‘zbek tilida uch marta nashr qilindi. Ilk bor 1960-1963-yillarda Solih Mutallibov¹ tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, turkiy matni transkripsiya qilingan holda izohlari bilan nashr qilingan edi. Oradan yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘tib, 2016-yilda taniqli o‘zbek professor olimlari Hamidulla Boltaboyev² hamda 2017-yilda Qosimjon Sodiqov³ tomonidan qaytadan nashr qilindi.

¹ Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘otut-turk”. 1-3- jildlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Mutallibov.S. –T: O‘zFA Fan nashriyoti. 1960,1961,1963.Keyingi o‘rinlarda (SM)

² Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘oti-t-turk. 1-3 jild. (Nashrga tayyorlovchilar: A.Rustamov, H.Boltaboyev, B.Isabekov)-T.: MUMTOZ SO‘Z, 2016.Keyingi o‘rinlarda (HB)

³ Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘ati-t- turk”–T.: G‘afur G‘ulom. Nashrga tayyorlovchi Sodiqov Q. 2007. B.2. keyingi o‘rinlarda (QS).

“Devonu lug‘ati-t-turk” (keyingi o‘rinlarda DLT) asarining o‘zbek tilidagi uch nashrini o‘zaro matniy qiyoslash natijasida 2000 ortiq tafovutlar aniqlandi. Bu farqli holatlar turli darajada bo‘lib, orfografik xatolar, turkiy matndagi tovush-qo‘shimchalardagi o‘zgarishlardan toki butun-butun so‘z maqolalarning matndan tushib qolishi yoki orttirilishi, turkiy matnning o‘qilishi hamda tarjima va talqin bilan bog‘liqdir.

Qo‘lyozmaning birinchi sahifasidagi maxsus so‘zboshi tarjima va atamaları transkripsiyaga olingan holda Q.Sodiqovning nashriga kiritilgan. Qur‘oni Karimdan keltirilgan ikki oyatning ham tarjimasi berilgan. S.Mutallibov bu sahifa haqida hech bir o‘rinda izoh qoldirmagan. B.Atalay 5-6 satrli qisqa ta‘rif bilan cheklangan (BA.I/XXIII) ⁴, biroq to‘liq matnini yoritmagan. Qo‘lyozmaning 2-28 sahifalaridagi muqaddima qismi o‘zbekcha nashrlarda to‘liq tarjima qilingan. Qiyosiy tahlilda 50 ga yaqin matniy tafovutlar borligi ko‘rindi. Biz ayrimlariga to‘xtalamiz. Bu tafovutlarning birinchisi lug‘at nomi bilan bog‘liq:

“*Devonu lug‘oti-t-turk*”-“*Devonu-lug‘oti-t-turk*”-“*Devonu lug‘ati-t-turk*”. Qo‘lyozmada: ديوان لغات الترك - *Divānu luġāti-t-türki*. Bu yerda ğ emfatik tovush bo‘lib, yo‘g‘on talaffuz qilingani bois, ustida fatha kelsa cho‘ziq o o‘qilishi mumkin⁵. Umuman arab tilidan o‘zlashgan ko‘pgina so‘zlarda ayni holat kuzatiladi. Shuningdek, aksariyat xorijiy nashrlarda cho‘ziq a bilan yoziladi. Shu xususda, asar nomi o‘zbek tilidagi nashrlarda to‘g‘ri talqin qilingan. Qayta nashrlarning har ikkisida ham [MUQADDIMA] sarlavhasi mazmundan kelib chiqib orttirilgan. Q.Sodiqov muqaddimada keltirilgan barcha *tarixiy shaxslarning nomini, nisbasini, arabcha lingvistik atamalarini, lug‘at tarkibidagi 8 kitob nomlari, turkiy qabilalar nomlarini, shaharlarni* arab tilida qanday yozilgan bo‘lsa, shunday transkripsiya asosida kursiv bilan ajratib bergan. S.Mutallibov va H.Boltaboyev nashrlarida kirill yozuvida tabdil qilingan. Qiyoslang: Abulqosim Abdulloh binni Muhammadil Muqtado biamrulloh (SM.I/42) – Abulqosim Abdulloh binni Muhammadi-l Muqtado Biamrulloh (HB.I/22) – *Abu-l-Qāsim ‘Abullāh bin Muḥammadi-l Muqtadā biamrillāh* (QS.14).

Mahmud Koshg‘ariy turklar haqida ishonchli buxorolik va nishopurlik olimdan⁶ eshitgan bir hadisni keltirgan. S.Mutallibov ushbu hadisni aytgan roviyning *payg‘ambarga nisbat berganligini* yozgan (SM.I/42). H.Boltaboyev nashrida ham shunday keladi (HB.I/22). Q.Sodiqov nashrida bu jumla *payg‘ambarga nisbat berib, sanadi bilan aytgan edilar* ko‘rinishida orttirilgan (QS.14) Matnda bu o‘rin quyidagicha keladi: عَنْ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ كِلَاهُمَا رَوِيَا بِإِسْنَادٍ لِهَمَا *kilāhumā ravayā bi isnādi, ya’ni har ikkisi ham Rasululloh s.a.v haqida u ikkisining sanadi bilan rivoyat qiladilar*, deyiladi (MK.2/16). Demak, Q.Sodiqov tomonidan orttirilgan o‘rin qo‘lyozmada mavjud. A.Rustamovning rus tilidagi tarjimasida ham aynan shunday (K.I/56)⁷.

Bu qismda kelgan yana bir tafovutli holat DLT tarkibidagi so‘nggi sakkizinchi kitob nomi va tarjimasidadir: S.Mutallibov va H.Boltaboyev – “*Ikki undosh qator kelgan so‘zlar bo‘limi*”; Q.Sodiqov esa *Kitabu-l-jam ‘bayna-s-sakinayni [ya’ni yonma-yon kelgan harakatsiz ikki undoshli so‘zlar kitobi]* deb tarjima qilgan. Inglizcha va ruscha nashrlarda ham ayni shunday holat. A.Rustamov: Vosmaya — kniga slov so stecheniyem dvux neoglasovannykh buk v (K.I/5); Den-

⁴ Atalay Besim. *Divanü Lügat-it-Türk Tercümesi*. Ankara, 1939-1941. I, II, III c

⁵ Mahmud bin al-Husayn bin Muhammad al-Kashg‘ari. *Kitābu dīvānu luġ‘âti-t-türk*. Tipkibasim-Türkçe Sözcükler, Özel Adlar Dizini. Yayına hazirlayan Şaban Kurt. Istanbul, 2008. 638+ 319 s. (Tadqiqot davomida qo‘lyozmaning mazkur faksimilye nashridan foydalanildi)

⁶ Qo‘lyozmada “olim” so‘zi o‘mida “imom” keladi.

⁷ Maxmud al-Kashgari. *Divan lugat at-turk (Svod tyurkskix slov)*: v 3 t. / Per. s arab. A.R. Rustamova pod red. I.V. Kormushina, prim. I.V. Kormushina, Ye.A. Potseluyevskogo, A.R. Rustamova; M.: Vost. lit., 2010. tom 1.461 s.

koff-Kelli nashrida – Book of Words Joining Two Unvowelled (DK.I/86)⁸. Qo'lyozmada berilishi: *الْتَّامِينُ كِتَابُ الْجَمْعِ بَيْنَ السَّاكِنَيْنِ as-sāminu kitābu-l jam'i baynas-sākinayni - Yonma-yon kelgan harakatsiz ikki undoshli so'zlar kitobi yoki Ikki sukun yonma-yon kelgan so'zlar kitobidir.* (MK.13/4). C.Rustamiy ham - Ikki undosh yonma-yon kelgan so'zlar kitobi deb o'g'irgan⁹.

H.Boltaboyev nashrining ilmiy qiymatini oshirgan yana bir jihat bor. S.Mutallibov hamda Q.Sodiqov nashriga kirmagan bir xatboshi ushbu nashrda tiklangan: “*Yo Rabbim, niyatimga yetishga imkon ber! O'zingagina suyanaman. Zotan O'zidan o'zga Qodir qudrat yo'q. O'zi niyatlarga yetkazuvchi, O'zigina himoyachimizdir*”(HB.I/25). Qo'lyozmada ushbu jumla uyg'ur yozuvining qo'llanilishi haqidagi bo'limdan oldin keladi: *وَاللّٰهُ اَسْأَلُ التَّوْفِيقَ فِيمَا نَوَيْتُ وَقَلْبِي عَلَيْهِ طَوَيْتُ وَلاَ حَوْلَ وَلاَ قُوَّةَ اِلَّا بِاللّٰهِ الْعَلِيِّ الْعَظِيمِ وَ هُوَ حَسْبُنَا وَنِعْمَ الْوَكِيلُ Vallaha as'alut tavfiqo fimā navaytu va qalbi a'layhi tovaytu va lā havla va lā quvvata illā billahi a'lā-l a'zīmi va huva ḥasbunā va ni'mal vakīlu* (MK.6/4,5) Mazkur qism DLTning biz kuzatgan barcha xorijiy nashrlarida mavjud. S.Mutallibovning bu qismni, shuningdek, hadislar va Qur'on oyatlarining tarjimasini bermagani o'tgan asrning ikkinchi yarmidagi ma'lum cheklovlar hisobiga bo'lishi kerak.

Muqaddimaning “So'zlarning tuzilishida qo'llaniladigan asosiy harflar haqida” sarlavhali bo'limida M.Koshg'ariy “xatti turkiyya” ya'ni uyg'ur yozuvining qo'llanilishi yuzasidan grammatik ma'lumot bergan. Unda aytilishicha, turk yozuvidagi harflar soni tovushlar soniga nisbatan kamligi uchun bir harf ikki-uch tovushni ifoda etadi. Shuningdek, arab tilidagi itboq harflari turkiy birorta qabila tilida ham uchramaydi. Mabodo, yozuvda bu tovushlarga ehtiyoj tug'ilsa, mavjud harflarga shartli belgilar qo'yilib ajratiladi. Bu harflardan *ث* *sā* ni yozish uchun turkcha *ḍāl* suratida yozilib *ustiga nuqta qo'yiladi* (*تُنْقَطُ عَلَيْهَا - tunqatu a'layhā* MK.7/13) deyiladi. Shu o'rin S.Mutallibov va H.Boltaboyev tarjimasida *ustiga qo'sh nuqta* (ya'ni ikkita nuqta) qo'yiladi deb yozilgan (SM.I/49;HB.I/26). Q.Sodiqov bu o'rinni qo'lyozma asosida tuzatgan (QS.17).

Matnda Koshg'ariy qo'llagan tilshunoslik atamaları noshirlar tomonidan turli talqin qilingan. Arab tilida bo'lmagan turkiy tovushlar *p, ĉ, g, w, η* ni yozilishida mavjud harflar ustiga nuqtalar qo'yish yoki o'z holicha yozish holatlari uchraydi. Xususan, turkiy *w* tovushi ba'zan *ف* ba'zan esa *ف* bilan yozilgan: *تاز ات تَفَارِجِي بِلْمَاس taz at tawarĉi bolmas* (MK.509/8) – *ol meĉa tawar jawsadi* *تَفَارِجِي بِلْمَاسِ* ¹⁰ *أَل مَنكَا تَفَارِجِي بِلْمَاسِ* (MK. 578/6). Yoki maxsus atamalardan foydalanib ta'rif beradi. Shuningdek, Koshg'ariy turkiy *g* *ك* tovushini muqaddimada *الكافُ الْمُثَوَّلِيَّةُ al kāfu-l mutvallyatu*, turkiy *pā* tovushini tushuntirishda *وَهِيَ الْيَاءُ الصَّلْبَةُ va hiya alyāuš-šalbahū*¹¹, ya'ni qattiq *ب* bilan yoziladi deb uqtiradi (MK.6/16). Nashrlarda aynan shu o'rin *qattiq* *ب*, (SM.I,)yoki *jarangsiz* *ب* bilan ifodalanadi, deb tarjima qilingan. S.Rustamiyning xulosasiga ko'ra, arab tilshunosligidagi *šalāba* – qattiqlik ma'nosida, biroq zamonaviy tilshunoslikda “jarangsizlik”ka to'g'ri keladi¹². Demak, nashrlarda bu masala to'g'ri talqin qilingan, faqat yondashuv jihatdangina farq qiladi. Q.Sodiqov tovushga nisbatan “qattiq”, “yumshoq” sifatlarini berish to'g'ri emas, deb hisoblaydi¹³.

⁸ Mahmud al-Kashgari, Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lugat at-Turk), edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. Cambridge, Mass. [In: Sources of Oriental Languages and Literatures, ed. Sinasi Tekin.] Part I: 1982 (Pp. xi + 416). Part II: 1984 (Pp. iii + 381). Part III: 1985 (Pp. 337 + microfiche)

⁹ Rustamiy S. “Devonu lug'oti-t-turk”dagi lingvistik atamalar. T. 2006. B.38

¹⁰ *تَفَارِجِي بِلْمَاسِ* so'zida boshidagi *ي* ning nuqtalari qo'lyozmada qo'yilmagan.

¹¹ Bu o'rinda belgilangan joyda aslida *ب* yozilishi kerak edi. Shuningdek, ta'marbutaning nuqtasi ham qo'yilmagan. Biz matnda qanday bo'lsa shunday yozdik.

¹² Rustamiy S. B.79

¹³ Sodiqov Q. Eski o'zbek adabiy tili [Matn]. T:2021.-B.213.

O'zbek tilidagi nashrlarda muqaddima qism bilan bog'liq tafovutlar qolgan o'rinlarda asosan turkiy so'zlarning o'qilishi bilan bog'liq. Ta'kidlash o'rinliki, Q.Sodiqov ilk nashrdagi ayrim yanglishliklarni qo'lyozma asosida to'g'rilagan. Xususan, Abdurahmonov N. "Mahmud Koshg'ariy – turkiy tillarda harf tushish hodisasi haqida" ilmiy maqolasida DLT ning o'zbek tilidagi nashriga (SM.I,69), murojaat qilib, o'g'uzlar hamda qipchoqlar otlar va ishning ko'p qayta ishlanganini bildiruvchi fe'llarning o'rtasida kelgan "ch" ج ni hamma yerda ham tushirib qoldirishini yozadi.¹⁴ Biroq, Mahmud Koshg'ariy bu xususda *ch* ج emas, g'ayn غ tushib qolishini ko'rsatgan (MK.28/7,8). U جُمُغُق *čumğūq* va تَمَغُق *tamğaq* so'zlaridan namuna keltirgan. Nashrda esa "*chumchuq*" deb olingan va tasodifan mazmunga to'g'ri kelgan. Koshg'ariy bu yerda "*chumchuq*" emas, boshqa qushni nazarga tutgan, ya'ni جُمُغُق *čumğūq* – oyoqlari va tumshug'i qizil, qanotlari oq parli qarg'a ekanligi, o'g'uzlar غ siz talaffuz qilishlarini yana bir bor ta'kidlagan (MK.236/14). Shu o'rin Q.Sodiqov nashrida qo'lyozma asosida to'g'ri talqin qilingan: "... turklar *čumğūq* desalar, ular bu so'zdagi *ğayn* ni tushirib, *čumuq* deydilar. Turklar "tomoq (bo'g'iz)" ni *tamğaq* desalar, ular *tamaq* deydilar (QS.26).

Q.Sodiqov mazkur qismda yanglish ketgan yana bir o'rinni tuzatgan. Mahmaud Koshg'ariy fe'llardan ismlar yasalishi uchun o'n ikki nafar turkiy tovush vosita bo'lishini dalillar bilan asoslaydi. Shu o'rinda jarangsiz kaf [k], jarangli kaf [g] tovushlariga ham to'xtalib, ayni shu atamalar bilan mazkur tovushlarni farqini keltiradi hamda jarangli kaf[g] *tirig, ölüg* (QS.19) so'zlarini yasashga xizmat qilganini uqtiradi. S.Mutallibov va Hamidulla Boltaboyev nashrida mazkur so'zlar shu o'rinda ham lug'at ichida kelganda ham jarangsiz kaf [k] (нашрларда юмшоқ коф (г) деб олинган) bilan *тірік, ölyk* ўқиган (SM.I,54; HB.I,30). Bu ma'naviy farqqa olib kelmaydi, to'g'ri, biroq o'rganilayotgan davr fonetik xususiyatiga mos kelmasligi mumkin.

Muqaddimada, shuningdek, turkiy birliklarning o'qilishi bilan bog'liq quyidagicha tafovutlar aniqlanib, qo'lyozma bilan chog'ishtirildi:¹⁵

1. ب bilan kelgan so'zlarning *b* yoki *p* o'qilishi:
tabzadi-tabzadi-tepzädi – تَبْزَادِي ; *bäjənäk - bechänäk - päčänäk - بَجَانَك*
2. ج bilan kelgan so'zlarning *j* yoki *č* o'qilishi:
jag'mur- jag'mur- čağmur- جَڭمُر ; *jawar- jawar- čawar- جَاوَار* ; *jig'aj- chg'aj- čičay- جِيغَاي* ;
jig'an- chg'an- čičan- چِيغان ;
3. ذ bilan kelgan so'zlarning *z* yoki *δ* o'qilishi:
quzurg'un- quzurg'un- qudurğun- قُدْرُغُون ; *azg'ir- azg'ir- adğür- اَدْغِير* ; *jazim- jazim- yadim- يَزِيم* ;
4. Birikmalardagi o'zgarishlar :
ol ewgä barg'uluq ördi- ol ewgä barg'uluq ördi- ol ewka barg'iliq erdi- أَلْ أَفْكَ بَرْغَلِقْ أَرْدِي ; *ol kishi ol bizgä kälägän - ol kishi ol bizgä kelägän- Ol kiši-ol bizkä keliksäk- أَلْ كِيْشِي أَلْ بِيْزْكَ كَلِكْسَاك*

DLTning ilk tarjimasini nafaqat O'zbekistonda, balki o'sha vaqtdagi butun ittifoqda yagona nashr hisoblangan hamda ilm ahliga mazkur asarni ilk tanishtirgan va minglab ilmiy tadqiqotlarga asos bo'lgan edi. Albatta, bugungi kunda ilm-fanning rivojlanishi, turkologiyada qo'lga kiritilgan yutuqlar asarning qayta nashriga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi va o'zbek olimlari mazkur mashaqqatli ishni muvaffaqiyatli amalga oshirdilar. Birgina muqaddima

¹⁴ Abdurahmonov N. Turkiy tillarda harf tushish hodisasi haqida// Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o'ri. Xalqaro konferensiya materiallari. Samarqand.2002. B.18

¹⁵ So'zning S.Mutallibov, H.Boltaboyev, Q.Sodiqov nashrlari hamda qo'lyozmada berilishi ketma-ket yozilgan.

qismidagi ayrim yanglishliklarni qo'lyozma asosida qayta tiklanishi ham ko'pgina bahsli munozaralarga barham beradi. Biroq, ta'kidlash joizki, Solih Mutallibov nashrni tayyorlashda qo'lyozmadan emas, uning bosma nashridan foydalangan. Shuning uchun ham nashrda ayrim kichik xatoliklar uchraydi. Ayni damda bu xatoliklar bosma nashrning o'zida ham mavjud edi. Bugungi kunga kelib qo'lyozmaning sifatli faksimile nashri besh marta chop qilindi va nashrdagi kamchiliklar oydinlashdi. Qayta nashrlarni tayyorlagan har ikki muallif ham kamchiliklarni qo'lyozma asosida to'ldirib, isloh qildi. Nashrlar tez fursatda yangi tadqiqotlarga asos bo'lib ulgurdi.